

INVESTITSIYA LOYIHALARINI TEHNIK-IQTISODIY ASOSLASH XUSUSIYATLARI

Alptekin Musa Yavuz

Istanbul Universitet, professor

Arslanbekov S.M

TDTU, dotsent

So‘nggi bir necha yil ichida O‘zbekiston jadal iqtisodiy o‘zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to‘siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish va qat’iyatlilik ramzlaridan biri sifatida tobora ko‘proq namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida qulay investitsiya muhiti yaratildi. “Mamlakatimizdagi mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etgan holda, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmini yanada oshirishni maqsad qilganmiz. 2030 yilga borib, O‘zbekiston jon boshiga hisoblaganda, aholi daromadlari o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lgan davlatlar qatoridan o‘rin egallaydi. Bunga, avvalo, xususiy sektorni rag‘batlantirish va uning ulushini oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etish hisobidan erishish ko‘zda tutilmoqda”¹

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, shu jumladan yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish yo‘li bilan, puxta o‘ylangan tashqi qarzlar siyosatini amalga oshirishini davom etish, jalb qilingan xorijiy investitsiyalar va kreditlardan samarali foydalanish. Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy tushunchalaridan biri investitsiyalar tushunchasi bugungi hayotimizga keng va tez kirib kelishining o‘zi uning mohiyati va ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston oldida bir qancha muammolar mavjud, ularni hal etishda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim: - investitsion muxitni yanada yaxshilash xorijiy investorlarga va milliy ishlab chiqaruvchilarga bir xil imkoniyat, imtiyozlar yaratish; -milliy bugalteriya hisobini, xorijiy investitsiyalarga oid statistik bazasini Xalqaro Moliyaviy Hisobi Standartlariga

yanada yaqinlashtirish; -qo'shma korxonalarni tashqi bozorlarga yo'naltirilgan faoliyatini jadallashtirish, valyuta oqimini barqarorlashtirish; -investitsiyalarning hududiy yondoshuvini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish -erkin eksport zonalari amaliyotini o'rganish va ularni yurtimizda joriy qilishga erishish.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, yakka tartibdagi tadbirkorlari va yuridik shaxslari - rezidentlari, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari, chet davlatlar, chet davlatlarning ma'muriy yoki hududiy organlari, xalqaro tashkilotlar hamda chet ellik yuridik shaxslar va fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar investitsiya faoliyatining subyektlaridir. (9-modda). Investor va investitsiya faoliyatining ishtirokchilari-subyektlari quyidagilar bo'lishi mumkin: - O'zbekiston Respublikasining rezidentlari, fuqarolari, yuridik shaxslari; -mahalliy davlat hokimiyati organlari va davlat boshqaruvi organlari; -xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va chet ellik yuridik shaxslar hamda fuqarolar, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va O'zbekiston Respublikasining chet elda doimiy yashovchi fuqarolari; -hamkorlikda investitsiya faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlatlar va xalqaro tashkilotlar. Investorlar buyurtmachi (mablag' kirituvchi), kreditor, sotib oluvchi bo'lishlari, shuningdek investitsiya faoliyati ishtirokchisi vazifasini bajaruvchi ham bo'lishlari mumkin.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ilmiy texnik, ishlab chiqarish va aqliy imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositadir. Aynan xorijiy investitsiyalar orqali milliy iqtisodiyot jonlanib, ishlab chiqarishda zamonaviy raqobatdoshlar tovarlar ishlab chiqarishga ixtisoslashib boriladi. Bu esa o'z navbatida yangi ish o'rinlarining ochilishi va mamlakatdagi mavjud iqtisodiy va ijtimoiy muammolarining hal bo'lishiga olib keladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, mamlakat iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni, salmog'i mazkur davlatdagi investitsion muhitning qanchalik qulayligini belgilaydi. Bu muhit ko'p jihatdan xorijiy investitsiyalarga nisbatan davlat olib borayotgan siyosatini va tashqi iqtisodiy faoliyatining davlat tomonidan tartibga solishining xususiyatlari bilan baholanadi.

Investitsiya loyihasi (loyiha) - iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa manfaat ko‘rish maqsadida investitsiyalar kiritgan holda oldindan belgilangan muddat mobaynida amalga oshiriladigan o‘zaro bog‘liq tadbirlar va ishlar kompleksidir. Loyiha oldi hujjatlari - qabul qilingan parametrlarga ko‘ra loyihani amalga oshirishning imkoniyati va maqsadga muvofiqligini, shuningdek uning hayotiyligini asoslab beruvchi hujjatlar yig‘indisi hisoblanadi. Loyiha oldi hujjatlariga loyihaning texnik-iqtisodiy asoslashi (texnik-iqtisodiy hisoblashi), materiallar va asbob-uskunalar yetkazib berish, qurilish-montaj ishlarini va ishlarning boshqa turlarini bajarish yuzasidan tender o‘tkazish uchun tanlov hujjatlari; loyihaning yakuniy texnik-iqtisodiy asoslashi yoki texnik-iqtisodiy hisoblashi, shuningdek moliyaviy takliflar yoki kredit va investitsiya <https://www.carboncollective.co/sustainable-investing/green-investments>. Shartnomalari (pul mablag‘lari jalb etilgan taqdirda) kiradi.

Loyiha hujjatlari - ishchi hujjatlarni ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan arxitektura-shaharsozlik yechimlari va texnik yechimlarni, qurilishning smeta qiymatini o‘z ichiga oluvchi hujjatlar. Loyiha hujjatlari tasdiqlangan texnik-iqtisodiy asoslash asosida ishlab chiqiladi. Dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash yoki dastlabki texnik-iqtisodiy hisoblash (DTIA yoki DTIH) - variantlarni ko‘rib chiqish asosida loyihani oqilona joylashtirish va amalga oshirishning eng samarali texnik, tashkiliy va iqtisodiy yechimini tanlashni, umuman loyihaning cheklangan qiymatini, shu jumladan, texnologik asbob-uskunalar qiymatini asoslovchi, uni moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan manbalari bo‘yicha variantlarni hisobga olgan holda moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hajmini belgilovchi hujjat hisoblanadi. Yakuniy texnik-iqtisodiy asoslash yoki texnik-iqtisodiy hisoblash (TIA va TIH) - investitsiya loyihasini amalga oshirishning tanlov savdolari asosida va loyihani moliyalashtirish shartlarini hisobga olgan holda aniqlangan yakuniy, eng samarali texnik, tashkiliy va moliyaviy-iqtisodiy yechimlarini belgilovchi loyiha oldi hujjati.

Xalqaro moliya va iqtisodiyot institutlari (XMII) - davlatlararo bitimlar asosida tashkil etilgan, O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi birgalikda moliyalashtiruvchi institutlardir. Xorijiy hukumat moliya tashkilotlari (XHMT) - O‘zbekiston Respublikasida investitsiya loyihalarini moliyalashtiruvchi birgalikda

moliyalashtiruvchi xorijiy hukumat moliya tashkilotlari; Investitsiya loyihasini amalga oshirish shartlariga bog‘liq holda investitsiya loyihasi hujjatlari quyidagicha izchillikda ishlab chiqiladi: a) DTIA - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish - tanlov hujjatlari - TIA - ishchi hujjatlar; b) DTIH - moliyalashtirish manbalari va shartlarini kelishish - tanlov hujjatlari - TIH - ishchi hujjatlar; v) ishchi loyiha-tanlov hujjatlari. Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan obyektlar, jalb etilayotgan kreditlarni to‘lash uchun mablag‘lar defitsitini byudjet mablag‘lari hisobiga uzishni nazarda tutadigan DTIA (DTIH) bo‘yicha hulosalarida nazarda tutilayotgan byudjet mablag‘larining maqsadga muvofiqligi (muvofiq emasligi) hamda hajmlari, shu jumladan soliq imtiyozlari berish to‘g‘risidagi hulosalar mavjud bo‘lishi kerak. Vakolatli ekspertiza organlari qayta tashkil etilgan taqdirda hulosa huquqiy voris bo‘lgan tashkilot tomonidan beriladi. Investitsiya loyihasining dastlabki texnik-iqtisodiy asoslanishi quyidagi vakolatli ekspertiza organlarida belgilangan tartibda ekspertizadan o‘tadi: Vakolatli bank (banklar), Moliya vazirligi, “Davarxitektqurilish” qo‘mitasi, Iqtisodiyot vazirligi. Investitsiya loyihasini texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) ning namunaviy tarkibi:

1. Loyihaning maqsadi (rezyume);
2. Loyihaning buyurtmachisi;
3. Loyiha strategiyasi (loyihani yaratish tarixi va shart-sharoitlari);
4. Marketing bozori va konsepsiyasi;
5. Moddiy resurslar;
6. Obyektning joylashgan joyi;
7. Loyihalashtirish va texnologiya;
8. Ishlab chiqarishni tashkil etish va qo‘shimcha harajatlar;
9. Mehnat resurslari;
10. Loyihani amalga oshirish sxemalari;
11. Loyihani amalga oshirish variantlarini moliyaviy baholash;

12. Xulosalar (Loyihaning asosiy afzalliklari va kamchiliklari, qabul qilingan variantning muqobil variantlardan afzalliklari, noaniqlik tavakkalchiliklari va jihatlari, loyihani amalga oshirish imkoniyatini baholash);

13. Milliy va xorijiy valyuta harajatini alohida aks ettirgan holda erkin shaklda moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar sxemalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo‘lishi kerak.;

14. Tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari, shu jumladan quyidagilar mavjud bo‘lishi kerak:

14.1. Yuridik hujjatlar;

14.2. Kontrakt hujjatlari;

14.3. Smeta hujjatlari va moliyaviy hujjatlar;

14.4. Ekspert hujjatlari va boshqa hujjatlar;

14.5. Tayyor mahsulotni sotish va hom ashyo, materiallar harid qilish marketing tadqiqotlari bo‘yicha hujjatlar.

Iqlim o‘zgarishiga ta‘sir ko‘rsatadigan ko‘plab tarmoqlarga to‘g‘ridanto‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kapital oqimlarining muhim segmentiga aylanmoqda. Qayta tiklanadigan energiya, transport va atrof-muhit texnologiyalari va xizmatlariga yo‘naltirilgan —yashil to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalar so‘nggi o‘n yillik mobaynida 3 baravarga oshdi . Rivojlanayotgan davlatlarga kiritilayotgan —yashil to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarning ulushi o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, yangi loyihalar soni bo‘yicha rivojlanayotgan davlatlarga jalb etilgan —yashil investitsiyalar ulushi 2015 yildagi 30 foizdan 2022 yilda 52 foizga yetgan.

Adabiyotlar:

1. Presidentlikka qayta saylangan Shavkat Mirziyevning 2021 yil 6 noyabr kuni inauguratsiya marosimidagi nutqi

2. . Arslanbekov S.M. Xalqaro investitsiyalarni jalb qilish omillari. Monografiya.TDTU,2023,201b.

3. Xorijiy investisiyalar. U.S. Nadirxanov, S.M. Arslanbekov, N.B. Shonazarova. O‘quv qo‘llanma. – Andijon: “Omadbek print number one” nashriyoti, 2024-y., 118 b.

4. Tojiboyev, N., Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A. (2022). Basics of SQL for audit data retrieval and analysis. *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 19(1), 237-265.
5. Tojiboyev, N. (2022). *Continuous Audit Analytics Methods: The Skipper, the Stretcher, and the Looper* (Doctoral dissertation, Rutgers The State University of New Jersey, Graduate School-Newark).
6. Tojiboyev, N., & Kogan, A. (2025). Similarity-Based Inference for Risk-Based Audit Selection. *Available at SSRN 5165348*.
7. Tojiboyev, N. (2024). Exception Rule Generation from Exception and Outliers. *Available at SSRN 5187209*.
8. Cheong, A., Duan, H. K., Huang, Q., Vasarhelyi, M. A., Zhang, C. A., Cong, Y., ... & Kogan, A. (2022). *Journal of Emerging Technologies in Accounting* A Publication of the Strategic and Emerging Technologies Section of the American Accounting Association.
9. Tojiboyev, N., & Kogan, A. Similarity-Based Audit Selection: Skipper and Stretcher. *Available at SSRN 4226144*.